



XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KADRLAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Abduvoxidova Mohinur Akmalovna,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti doktoranti.

mohinur_1998@icloud.com

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18i.1610>

MAQOLA HAQIDA/ O' STAT'YE

Qabul qilindi: 15-aprel 2026-yil

Tasdiqlandi: 17-aprel 2026-yil

Jurnal soni: 18-A

Maqola raqami: 50

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

globallashtirish, raqamlashtirish, xizmat ko'rsatish, yangi ish o'rinlari, kadrlar tayyorlash, zamonaviy ta'lim, samaradorlik, raqobat, mijoz

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Ushbu maqolada globallashtirish va raqamlashtirish jarayonlari sharoitida xizmat ko'rsatish sohasining iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati chuqur tahlil qilingan. Xizmatlar sohasi bugungi kunda eng tez rivojlanayotgan tarmoqlardan biri bo'lib, u nafaqat iqtisodiy o'sish sur'atlarini belgilashda, balki yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi bandligini ta'minlash hamda jamiyat farovonligini oshirishda muhim rol o'ynamoqda. Shu nuqtai nazardan, mazkur sohada raqobatbardoshlikni ta'minlash masalasi birinchi navbatda inson omili, ya'ni yuqori malakali, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega kadrlar salohiyatiga bevosita bog'liqlik asoslab berilgan. Tadqiqotda xizmat ko'rsatish sohasida kadrlar raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan yoritilgan. Xususan, kadrlarning kasbiy bilimlari, amaliy ko'nikmalari, innovatsion fikrlash qobiliyati, kommunikativ malakalari hamda moslashuvchanlik darajasi ularning mehnat bozoridagi raqobat ustunligini belgilovchi asosiy omillar sifatida tahlil qilingan. Shuningdek, ta'lim tizimi, innovatsion texnologiyalar va amaliyot uyg'unligi orqali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish zarurligi asoslab berilgan. Maqolada xorijiy olimlarning xizmatlar sohasi raqobatbardoshligi va inson resurslarini rivojlantirishga oid ilmiy qarashlari tahlil qilinib, ularning zamonaviy iqtisodiy sharoitlarga mos jihatlari ochib berilgan. Shu bilan birga, O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi va kadrlar tayyorlash jarayonlarida amalga oshirilayotgan islohotlar xizmatlar sohasi ehtiyojlari bilan bog'liq holda ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, xizmat ko'rsatish sohasida kadrlar raqobatbardoshligini oshirish kompleks yondashuvni talab etadi. Ya'ni, ta'lim muassasalari, ish beruvchilar va davlat siyosati o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish hamda mehnat bozorining o'zgaruvchan talablariga tez moslasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash muhim hisoblanadi. Natijada, xizmatlar sohasining barqaror rivojlanishi va iqtisodiy samaradorligi oshishi ta'minlanadi.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 15 april 2026

Approved: 17 april 2026

Volume: 18-A

Paper number: 50

KEYWORDS

globalization, digitalization, service provision, new jobs, training, modern education, efficiency, competition, client

ANNOTATION

This article provides an in-depth analysis of the role and importance of the service sector in the economy in the context of globalization and digitalization. The service sector is one of the fastest growing sectors today, playing an important role not only in determining the pace of economic growth, but also in creating new jobs, ensuring employment, and increasing the well-being of society. In this regard, it is justified that the issue of ensuring competitiveness in this sector is primarily related to the human factor, that is, the potential of highly qualified, modern knowledge and skills. The study covers the issues of improving the mechanisms for increasing the competitiveness of personnel in the service sector from a scientific, theoretical and practical perspective. In particular, the professional knowledge, practical skills, innovative thinking, communicative skills, and level of flexibility of personnel are analyzed as the main factors determining their competitive advantage in the labor market. It also substantiates the need to improve the quality of personnel training through the combination of the education system, innovative technologies, and practice. The article analyzes the scientific views of foreign scientists on the competitiveness of the service sector and the development of human resources, revealing their relevance to modern economic conditions. At the same time, the reforms being implemented in the higher education system and personnel training processes in Uzbekistan are considered in connection with the needs of the service sector. According to the results of the study, increasing the competitiveness of personnel in the service sector requires an integrated approach. That is, it is important to strengthen cooperation between educational institutions, employers and state policy, introduce innovative educational technologies, and train specialists who can quickly adapt to the changing demands of the labor market. As a result, sustainable development of the service sector and increased economic efficiency will be ensured.

Kirish. Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga hamda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan xizmatlar ko'rsatish tizimini yaratish bo'yicha keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda. Hududlarda yangi ish o'rinlarining tashkil etilishi, kadrlar tayyorlashning zamonaviy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari hamda masofaviy va kechki bo'limlarning ochilishi, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarining oshirilishi mazkur yo'nalishdagi muhim islohotlar hisoblanadi. Ushbu islohotlar natijasida xizmatlar ko'rsatish tizimi oldida ijodkorlik va tashabbuskorlik qobiliyatiga ega, mustaqil qaror qabul qila oladigan va zamonaviy texnologiyalarga tez moslashishga layoqatli, yuqori malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash vazifasini qo'yadi.

Shuningdek, bugungi globallashtirish jarayonlari va iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi sharoitida xizmat ko'rsatish sohasi faqat iqtisodiy faoliyat turi sifatida emas, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlovchi muhim tizim sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Ushbu sohaning jadal rivojlanishi yangi turdagi xizmatlarning

paydo bo'lishi, raqamli platformalarning kengayishi hamda iste'molchilar talabining tobora individuallashtirish bilan bevosita bog'liqdir.

Mazkur sharoitda xizmatlar sohasida faoliyat yuritayotgan tashkilotlar oldida yuqori sifatli xizmat ko'rsatish, mijozlar ehtiyojini tezkor aniqlash va ularga moslashgan yechimlarni taqdim etish kabi dolzarb vazifalar yuzaga kelmoqda. Bu esa o'z navbatida kadrlarning nafaqat kasbiy bilimlari, balki ularning innovatsion fikrlash, raqamli savodxonlik va mijoz bilan samarali muloqot qilish ko'nikmalarini ham rivojlantirishni talab etadi.

Shu bilan birga, xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, xizmatlar sohasida raqobatbardoshlikni ta'minlash bevosita inson kapitaliga investitsiya kiritish, uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish hamda mehnat bozori ehtiyojlariga mos kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirish bilan chambarchas bog'liqdir. Ayniqsa, rivojlangan davlatlarda xizmatlar sektori iqtisodiyotning asosiy drayveri sifatida qaralib, unda innovatsion kadrlar salohiyatini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda ham ushbu yo'nalishda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, yangi ta'lim yo'nalishlarini ochish, raqamli iqtisodiyot uchun kadrlar tayyorlash hamda amaliyotga yo'naltirilgan ta'limni kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar xizmatlar sohasining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Shu nuqtai nazardan, xizmat ko'rsatish sohasida kadrlar raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb ilmiy-amaliy muammolaridan biri bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlarning tahlili. Xizmat ko'rsatish sohasida kadrlar raqobatbardoshligini oshirish masalasi zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan va dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida qaraladi. Ushbu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy omili sifatida inson kapitali, ya'ni bilimli, malakali va innovatsion fikrlashga ega kadrlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy olimlar orasida Y.Dixtl va X.Xershgen xizmatlar sohasida raqobatbardoshlikni oshirish strategiyalarini ishlab chiqishda nafaqat an'anaviy kadrlar tayyorlash tizimi, balki innovatsion pedagogik yondashuvlar ham muhim ekanligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, xizmatlar bozorida barqaror raqobat ustunligini ta'minlash uchun ta'lim jarayoni doimiy yangilanib borishi, o'quv dasturlari esa amaliyot bilan uzviy bog'langan bo'lishi lozim. Shuningdek, ular raqobatbardoshlikni oshirishda qisqa muddatli emas, balki strategik va tizimli yondashuvlar muhim rol o'ynashini qayd etadilar [1, 232–239-b.].

Y.Vagner va J.M.Ferreriya tomonidan taklif etilgan konseptual modelda tashkilotlarning raqobat ustunligini shakllantiruvchi ichki va tashqi omillar chuqur tahlil qilingan. Ushbu modelga ko'ra, xizmatlar sohasida tashkilotning muvaffaqiyati uning inson resurslari sifati, boshqaruv tizimi, innovatsion salohiyati hamda tashqi bozor sharoitlariga moslashuvchanligiga bog'liqdir. Ayniqsa, kadrlarning kasbiy kompetensiyasi tashkilot raqobatbardoshligining markaziy elementi sifatida qaraladi [2].

Mazzarol va T.Geoffereylarning ilmiy tadqiqotlarida xalqaro xizmatlar va ta'lim bozorida raqobat ustunligini yaratish masalalari o'rganilgan. Ular ishlab chiqqan modelda strategik boshqaruv, sifatli xizmat ko'rsatish, innovatsion yondashuv hamda inson kapitalining rivojlanishi asosiy omillar sifatida ko'rsatilgan. Ushbu olimlar fikriga ko'ra, global bozorda muvaffaqiyatga erishish uchun tashkilotlar doimiy ravishda o'z bilim va texnologik bazasini yangilab borishi zarur [3].

Rossiyalik iqtisodchi olim N.S. Yashin o'z ilmiy qarashlarida raqobatbardoshlikni baholash va boshqarishning metodologik asoslarini ishlab chiqqan. U raqobatbardoshlikni korxonaning ichki resurslari va tashqi bozor imkoniyatlari o'rtasidagi muvozanat sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, tashkilotning raqobat ustunligi asosan uning mehnat resurslari sifati va boshqaruv samaradorligiga bog'liqdir [4, 87-b.].

Shuningdek, L.N. Safiullin va N.Z. Safiullinlar raqobatbardoshlikni iqtisodiy kategoriya sifatida chuqur tahlil qilib, uning shakllanishida innovatsiyalar, texnologik rivojlanish va inson kapitali asosiy rol o'ynashini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, raqobatbardosh iqtisodiyot yaratish uchun ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi uzviy bog'liqlik mustahkam bo'lishi kerak [8, 63-b.].

R.A. Fathutdinov tomonidan ishlab chiqilgan nazariy yondashuvda esa tashkilot raqobatbardoshligini boshqarish tizimi kompleks xarakterga ega bo'lib, u marketing, ishlab chiqarish jarayonlari va inson resurslarini integratsiyalashgan holda boshqarishni talab etadi. U raqobatbardoshlikni oshirishda strategik boshqaruv muhim o'rin tutishini alohida ta'kidlaydi [7, 145-b.].

A.L. Gaponenko va A.P. Pankruxin tomonidan yozilgan ilmiy manbalarda esa raqobatbardoshlikni oshirishda ta'lim tizimining sifati, kadrlar tayyorlash jarayonining zamonaviyligi hamda innovatsion boshqaruv mexanizmlarining joriy etilishi asosiy omillar sifatida ko'rsatilgan. Ularning fikricha, raqobatbardosh iqtisodiyot yaratish uchun ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi uzviy bog'liqlik mustahkam bo'lishi kerak [8, 63-b.].

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, xizmat ko'rsatish sohasida kadrlar raqobatbardoshligi ko'p omilli va murakkab tizim bo'lib, u ta'lim sifati, innovatsion yondashuv, boshqaruv samaradorligi va inson kapitalining rivojlanishiga bevosita bog'liqdir. Biroq mavjud ilmiy manbalarda ushbu sohada raqobatbardoshlikni oshirishning iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlari, ayniqsa raqamli iqtisodiyot sharoitida, yetarlicha

kompleks yoritilmagan. Shu sababli mazkur yo'nalishda chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot dialektik dunyoqarash tamoyillari asosida olib borilib, unda iqtisodiy hodisa va jarayonlar o'zaro uzviy bog'liqlikda hamda tizimli yondashuv asosida o'rganildi. Xizmatlar ko'rsatish tizimi raqobatbardoshligini oshirish yo'llarini aniqlashda tahlil, taqqoslash hamda umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, soha rivojlanish ko'rsatkichlarini baholashda statistik va ekonometrik tahlil metodlari qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida xizmatlar bozori rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar kompleks ravishda o'rganilib, ularning o'zaro ta'siri tizimli ravishda tahlil qilindi.

Tadqiqotda xizmatlar bozori rivojlanishining asosiy tendensiyalari aniqlanib, raqobatbardoshlikni oshirishga ta'sir etuvchi omillar tizimli ravishda tasniflandi. Shu bilan birga, xizmatlar sifatini yaxshilash, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va boshqaruv samaradorligini oshirish yo'nalishlari bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Olingan natijalar xizmatlar ko'rsatish tizimini modernizatsiya qilish, uning barqaror rivojlanishini ta'minlash hamda milliy iqtisodiyotda tutgan o'rini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Natijalar. "Oldimizda turgan eng muhim va dolzarb masalalardan biri – yuksak ma'naviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlariga, o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iborat ekanini barchamiz yaxshi tushunamiz" deb ta'kidlaydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev. "Biz ko'plab dasturlarni qabul qilmoqdamiz, lekin ularni amalga oshiradigan, tashabbuskor va vatanparvar, yuqori malakali kadrlar yetarlimi? Oliy o'quv yurtlarida tayyorlanayotgan mutaxassislar oldimizga qo'yilgan bunday ulkan vazifalarni bajarishga qodirmi? Ularga ta'lim berayotgan o'qituvchi va professorlarning bilim va malakasi davr talabiga javob beradimi?" Ming afsuski, bu savollarga javob berish oson emas.

Shu sababli hozirgi kunda oliy ta'lim samaradorligini oshirish, mutaxassislarning kasbiy kompetentlik darajasini rivojlantirish, pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga yo'naltirish, oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayoniga innovatsion ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish va maqsadli yo'naltirish oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalashdagi dolzarb vazifalar sifatida belgilangan.


Xizmatlar ko'rsatish tizimini rivojlantirishda zamonaviy mutaxassis innovatsion jarayonlar natijalaridan foydalanmasdan, o'z faoliyatini davom qildiray olmaydi, chunki ilmiy-texnik axborotlar oqimi tez sur'atlar bilan o'smoqda, bu sharoitda yosh mutaxassis ilmiy axborotlardan texnik yangiliklarni va innovatsion g'oyalarni tanlab oladigan bo'lishi kerak, bunday qobiliyat ilmiy-tadqiqot hamda ijodiy ko'nikmalarsiz bo'lmaydi.

Hozirgi sharoitda ta'lim inson faoliyatining barcha sohalariga yangi texnologiyalarni tatbiq etish, raqobatbardoshlikni va turmush farovonligi darajasini oshirishning eng muhim omillaridan biri bo'lib hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashib borayotgan O'zbekiston uchun mehnat bozorining o'zgaruvchan talablariga tez moslasha oluvchi raqobatbardosh kadrlar faoliyatini yo'lga qo'yish va uni rivojlantirib borish ham dolzarb masaladir.

Bugungi kunda respublikamizda 114 ta oliy ta'lim muassasasi mavjud bo'lib, ulardan 93 tasi mahalliy hamda 21 tasi xorijiy oliy ta'lim muassasasi va ularning filiallari hisoblanadi. Jumladan, so'nggi 3 yilda yangi 6 ta oliy ta'lim muassasasi, 17 ta filial va 14 ta xorijiy oliy ta'lim muassasasi filiali tashkil etildi. Kadrlar buyurtmachilari takliflari asosida Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga 329 ta ta'lim yo'nalishi va 582 ta magistratura mutaxassisligi kiritildi.

Xizmatlar ko'rsatish sohasi raqobatbardoshligini ta'minlash taraqqiyotining bugungi holati integratsiyalashgan global iqtisodiy makonning uzviy bir qismi bo'lgan respublikamiz oldida xizmatlar tizimi faoliyatini ham jahon andozalari darajasida tashkil etish, xalqaro tizimiga integratsiyalashtirish, kadrlar tayyorlash tizimini zamonaviy xalqaro mehnat bozori talabi darajasida tashkil etishni talab etmoqda.

Shu jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, xizmatlar sohasida kadrlar raqobatbardoshligi - bu xodimning mehnat bozorida o'z bilim, ko'nikma va shaxsiy sifatleri orqali ustunlikka ega bo'lish qobiliyatidir. U quyidagi omillar bilan belgilanadi (1-rasm).



1-rasm. Kadrlar raqobatbardoshligi omillari

Yuqoridagi 1-rasmida keltirilgan omillarni qo'yidagicha asoslash maqsadga muvofiq bo'ladi.

1. Kasbiy bilimlar - bu xodimning o'z mutaxassisligi bo'yicha nazariy tayyorgarligi va sohaviy bilimlar majmuasidir. Buni quyidagi tartibda asoslash mumkin:

- Mehnat bozorida raqobat, birinchi navbatda, bilim darajasiga bog'liq
- Chuqur nazariy bilim muammolarni to'g'ri tahlil qilish imkonini beradi

- Yangi texnologiyalarni o'zlashtirish uchun fundamental bilim zarur. Kasbiy bilimlar raqobatbardoshlikning poydevori hisoblanadi.

2. Amaliy ko'nikmalar - bu bilimlarni real ish jarayonida qo'llay olish qobiliyatidir. Buni quyidagi tartibda asoslash mumkin:

- Ish beruvchilar ko'proq "tayyor mutaxassis"ni talab qiladi
- Nazariya amaliyot bilan mustahkamlanmasa, samara bermaydi
- Xizmat ko'rsatish sohasida tezkor qaror qabul qilish muhim.

Amaliy ko'nikmalar kadrlarning ish samaradorligini bevosita belgilaydi.

3. Innovatsion fikrlash - yangilik yaratish, muammolarga noan'anaviy yondashish qobiliyati. Buni quyidagi tartibda asoslash mumkin:

- Raqobat sharoitida faqat yangilik orqali ustunlikka erishiladi
- Xizmat ko'rsatish sohasida mijoz ehtiyojlari tez o'zgaradi
- Innovatsion xodimlar tashkilot rivojini ta'minlaydi

4. Kommunikativ qobiliyat - muloqot qilish, axborot almashish va mijozlar bilan samarali ishlash ko'nikmasi. Buni quyidagi tartibda asoslash mumkin:

- Xizmat ko'rsatish sohasi "inson-inson" munosabatlariga asoslangan
- Mijoz qoniqishi ko'p jihatdan muloqot madaniyatiga bog'liq
- Jamoada ishlash uchun samarali kommunikatsiya zarur

Kommunikativ qobiliyat xizmat sifatiga bevosita ta'sir qiladi.

5. Moslashuvchanlik - o'zgaruvchan sharoitlarga tez moslasha olish qobiliyati. Buni quyidagi tartibda asoslash mumkin:

- Zamonaviy mehnat bozori doimiy o'zgarishda
- Yangi texnologiyalar va ish usullari tez joriy etilmoqda
- Krizis holatlarida tez moslashgan kadrlar samarali ishlaydi

Moslashuvchanlik kadrlarning barqaror raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Muhokama. Xizmat ko'rsatish sohasida kadrlar raqobatbardoshligini oshirish masalasi bugungi kunda nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ta'limiy jarayonlar bilan ham chambarchas bog'liq bo'lgan kompleks muammo hisoblanadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mazkur sohada raqobatbardoshlikni ta'minlash birgina kasbiy tayyorgarlik bilan cheklanmaydi, balki kadrlarning innovatsion tafakkuri, kommunikativ madaniyati va o'zgaruvchan muhitga moslashuvchanligi bilan ham bevosita belgilanadi.

Amaldagi holatni baholash shuni ko'rsatadiki, xizmatlar sohasida ko'plab korxonalar va tashkilotlar kadrlar salohiyatini oshirishga e'tibor qaratayotgan bo'lsa-da, bu jarayon ko'pincha tizimli emas, balki fragmentar xarakterga ega. Ya'ni, ayrim hollarda faqat malaka oshirish

kurslari yoki qisqa muddatli treninglar bilan cheklanib qolish holatlari kuzatiladi. Holbuki, raqobatbardosh kadrlar shakllantirish uzluksiz ta'lim, amaliy tajriba va innovatsion faoliyat uyg'unligida amalga oshirilishi lozim.

Shuningdek, xizmatlar sohasining o'ziga xos xususiyati - mijoz bilan bevosita muloqotga asoslanganligi - kadrlarning kommunikativ kompetensiyasiga alohida talab qo'yadi. Amaliy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ko'plab tashkilotlarda mijoz bilan ishlash madaniyati yetarli darajada shakllanmaganligi sababli xizmat sifati pasayishi holatlari uchramoqda. Bu esa o'z navbatida tashkilotning umumiy raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat sifatida innovatsion fikrlash masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida faqat an'anaviy bilimlarga tayanish yetarli emas, balki yangi g'oyalarni ishlab chiqish, muammolarga noodatiy yondashish va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish zarur. Aks holda, xizmatlar sohasi tez o'zgaruvchan bozor talablariga moslasha olmay qolishi mumkin.

Shu bilan birga, olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash yo'nalishida sezilarli islohotlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, ta'lim jarayoni va real sektor o'rtasidagi integratsiya hali ham to'liq shakllanmagan. Natijada ayrim bitiruvchilar mehnat bozoriga chiqqanda amaliy ko'nikmalar yetishmasligi muammosiga duch kelmoqda. Bu holat xizmat ko'rsatish sohasida kadrlar raqobatbardoshligini oshirishga to'siq bo'luvchi omillardan biri hisoblanadi.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib aytish mumkinki, xizmatlar sohasida kadrlar raqobatbardoshligini oshirish uchun quyidagi yo'nalishlarda tizimli ishlarni amalga oshirish zarur: ta'lim dasturlarini mehnat bozori talablariga moslashtirish, amaliyot bazalarini kengaytirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda ish beruvchilar bilan hamkorlikni kuchaytirish.

Muhokama natijalari shuni tasdiqlaydiki, xizmat ko'rsatish sohasida barqaror raqobat ustunligiga erishishning asosiy omili - bu zamonaviy bilimlarga ega, innovatsion fikrlaydigan va amaliy ko'nikmalari rivojlangan kadrlarni shakllantirishdan iboratdir.

Xulosalar. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, aytishimiz mumkinki, bugungi globallashtirish va raqamlashtirish sharoitida xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sohada raqobatbardoshlikni ta'minlash esa, birinchi navbatda, yuqori malakali va zamonaviy ko'nikmalarga ega kadrlarga bog'liq. Kadrlar raqobatbardoshligini oshirish masalasi nafaqat alohida korxonalar yoki tashkilot darajasida, balki milliy iqtisodiyot darajasida ham strategik ahamiyatga ega. Shu bois mazkur ilmiy maqolada xizmat ko'rsatish sohasida kadrlar raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari keng qamrovda tahlil qilindi shu bilan birgalikda xizmat ko'rsatish sohasida kadrlar raqobatbardoshligini oshirish kompleks yondashuvni talab qiladi. Ta'lim, amaliyot va innovatsiyalarni uyg'unlashtirish orqali yuqori natijalarga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Дихтль Е., Хершген Х. Практический маркетинг. – М.: Высшая школа, ИНФРА-М, 1996. – 232-239 б.
2. Emerson Wagner Mainardes, João M. Ferreira. Creating a competitive advantage in Higher Education Institutions: proposal and test

of a conceptual model. International Journal of Management in Education, 2011. – 5(2/3), 45–67 б.

3. Mazzarol T., Soutar G. N. Sustainable Competitive Advantage for Educational Institutions: a Suggested Model. *International Journal of Educational Management*, 1999. – 13(6), 287–300 b.
4. Яшин Н. С. Конкурентоспособность промышленного предприятия: методология, оценка, регулирование. – Саратов: СГЭА, 1997. – 87 б.
5. Яшин Н. С. Конкурентоспособность промышленного предприятия: методология, оценка, регулирование. – Саратов: СГЭА, 1997.
6. Сафиуллин Л. Н., Сафиуллин Н. З. Конкурентоспособность: теория и методология. – Казань: Центр инновационных технологий, 2008. – 156 б.
7. Фатхутдинов Р. А. Управление конкурентоспособностью организации (3-е изд.). – М.: Маркет ДС, 2008. – 145 б.
8. Гапоненко А. Л., Панкрухин А. П. Общий и специальный менеджмент. – М.: ПАГС, 2001. – 63 б.
9. Kotler P., Keller K. L. *Marketing Management*. – Pearson Education, 2016. – 112 b.
10. Drucker P. F. *Management: Tasks, Responsibilities, Practices*. – Harper & Row, 1973. – 76 b.
11. Bell D. *The Coming of Post-Industrial Society*. – Basic Books, 1973. – 54 b.
12. Becker G. S. *Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis*. – Chicago University Press, 1993. – 93 b.
13. O'rinov A., Qosimov M. *Xizmat ko'rsatish sohasida inson resurslarini boshqarish*. – Toshkent, 2020. – 68 b.
14. Rahimov Z. K. *Aholi farovonligi va xizmatlar sohasi rivoji*. – Samarqand, 2023. – 102 b.